

**ARAB VA INGLIZ TILLARIDA HOLAT KATEGORIYASI.  
ULARDAGI INTEGRAL VA DIFFERENTIAL JIHATLAR**

*Raimberdiyeva Gulgona Husan qizi*

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi*

*Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'naliishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada holat kategoriyasi va uning tavsifi, mazkur grammatik kategoriyaning dunyo tillari tizimidagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, holat kategoriyasining arab va ingliz tillarida qanday ifodalanishi hamda aniqlik artiklining qo'llanilish o'rinni va boshqa vazifalari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** grammatik kategoriya, assimilyatsiya, shamsiy harflar, qamariy harflar, grammatik shakl, holat kategoriyasi, aniqlik, noaniqlik, shadda, tanvin, artikl.

Tilshunoslikdagi grammatik kategoriyalarning barchasi nutq jarayonida o'zida xos ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida axborot beruvchi yetkazilayotgan ma'lumotning tushunarli, ta'sirli va saviyalilagini ta'minlaydi. Mazkur grammatik kategoriyalarning biri bo'lmish holat (yoxud aniqlik) kategoriyasi ham bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridan alohida e'torga molikdir. Vaholanki, bu grammatik kategoriya dunyo tillarining barchasida ham maxsus grammatik shakllar orqali ifodalanmaydi. Xom-som, roman-german tillar oilalariga mansub bo'lgan arab va rus tillarida esa holat kategoriyasi faol qo'llaniladi.

Nutq davomida gap ba'zan so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan predmet yoki shaxs haqida borishi mumkin. Ba'zan mavzu umuman noma'lum shaxs yoki predmet haqida bo'lishi ham mumkin. Agar gap oldindan ma'lum shaxs yoki predmet haqida bo'lsa, o'sha predmet yoki shaxsni bildirgan so'z aniq holatda hisoblanadi [6;28]. Ismlar guruhiga kiruvchi so'zlar aniq yoki noaniq holatda bo'ladi. Noaniq holatdagi ismlar predmet yoki tushunchaning umumiyligi nomidan iborat bo'ladi. Masalan, "bu- kitob" jumlasida "kitob" so'zi noaniq holatda, chunki "bu daftar emas, jurnal emas, boshqa narsa emas, balki kitob" ekanligini bildiradi. Noaniq holatdagi ismlarga o'zbek tilida "bir", "qandaydir" so'zleri qo'shilsa, ma'noga putur yetmaydi.

Bu- kitob. = Bu- bir kitob. = Bu- qandaydir kitob[2;54].

So'zning aniq holatda ekanligini ko'rsatib turadigan belgi arab tilida ال artikli, ko'pchilik so'zlarning noaniq holatda ekanligini ko'rsatib turadigan belgi esa uning tanvinga tugagani bo'ladi[5;58].

Shuningdek, ال artikli kun so'ziga qo'shilganda, اليوم - bugun ma'nosini beradi. Bu artikl yig'ma ma'noni ham anglatadi. Masalan, انسان - inson, insonyat, xalq[9;56].

**ال artiklisiz kelgan ushbu so'zlar ham aniq holatda deb hisoblanadi:**

- a) atoqli otlar: فاطمة، احمد، طشقند، مكة، مصر kabi;
- b) ko'rsatish olmoshlari: ذلك، ذلك، هذا kabi;
- c) qaratqich- qaralmish (izofa) shaklidagi birikmaning birlinchi bo'lagi: طالب طالب الجامعة، كتاب الطالب kabi;
- d) Ya undalmasi bilan kelgan so'zlar: يا غلام، يا استاذ kabi[5;58].

### الـ aniqlik artiklining qo'llanilish o'rnlari:

- 1) matn yoki suhbatda avval tilga olingan, o'zaro so'zlashuvchilarga ma'lum bo'lган ismlar bilan;
- 2) suhbat jarayoni boshida tilga olinmagan bo'lsa ham, suhbatlashuvchilarga ma'lum bo'lган ismlar bilan, masalan: “الحبة يدور والى الرحى ترجع” – “don aylanib, tegirmon toshiga qaytadi” (maqolning mazmuniga ko'ra allaqachon ma'lum bo'lsa-da, avval aytilmagan);
- 3) dunyoda yagona bo'lган predmetni ifodalovchi so'zlar bilan, masalan: “Quyosh”, “Oy”, “Yer”, “Kitob” (Sibavayxiy asarining nomi);
- 4) berilgan turdagи predmetlarning butun majmasini bildiruvchi nomlar bilan, masalan: “آفة العلم النسيان” – “Ilmning falokati- unutishdir” (“Ilm” barcha fan va bilimlar ma'nosida);
- 5) moddalar va materiallarni bildiruvchi nomlar bilan, masalan: الحديد بالحديد - يفلح “Temir temir bilan qayta ishlanadi”:
- 6) turli xossa va xususiyatlarning mavhum nomlarini bildiruvchi otlar bilan, masalan: “Ozgina zulm ham haddan ziyoddir”[10;285].

الـ artikli quyidagi keltirilgan tovushlar bilan yonma-yon kelganda **assimilyatsiya** (bir tovushning boshqa bir tovush ta'sirida unga o'xshab ketishi yoki bir xillik kasb etishi, masalan, tuzsiz-tussiz[1]) hodisasi ro'y beradi: ت، ث، د، ذ، ر، ز، س، ش، ص، ض، ن، ظ، ل، ن [11;42]. Bunday harflar “shamsiy”, qolganlari esa “qamariy” deb ataladi.

Harakatlarni qo'yish lozim bo'lган holatlarda shamsiy harflardan oldin kelgan aniqlik artiklining ل harfidagi sukun yozilmaydi, undan keyingi harfga tashdid belgisi qo'yiladi[2;57].

Ingliz tilida ham arab tilidagi kabi holat kategoriyasi mavjud bo'lib, aniqlik va noaniqlikni ifodalovchi grammatick shakllar faol qo'llaniladi. Ingliz tilida aniqlik ma'nosи ham, noaniqlik ma'nosи ham alohida grammatick shakllar bilan ifodalanadi.

Ingliz tilida ko'pgina otlar oldida maxsus so'zlar keladi. Ularni ko'rsatkichlar deb ataymiz. Ot oldida faqat bitta ko'rsatkich kelishi mumkin. Eng ko'p tarqalgan ko'rsatkichlar aniq va noaniq artikllar a, an, the va ularga ko'p hollarda ma'nosи yaqin bo'lган some va any olmoshlaridir. Artikllarning mustaqil ma'nosи yo'q, ular shaxs yoki buyumning shu turdagи buyumlardan ajratib ko'rsatilayotgan yoki ko'rsatilmayotganligini, buyum suhbatdoshga ma'lum yoki noma'lumligini ifodalaydi.

Ko'rsatkichlar qaysi otga taalluqli bo'lsa, o'sha otdan oldin keladi, agar o'sha ko'rsatkichdan tashqari otning boshqa aniqlovchisi bo'lsa, ular ot bilan ko'rsatkich o'rtaida keladi:

Pushkin created the Russian literary language- Pushkin rus adabiy tilini yaratdi.

His first scientific work was a great success- Uning birinchi ilmiy ishi katta muvaffaqiyat qozondi.

1. Artikl otlar oldida ishlatiladigan maxsus so'zlardir. O'zbek tilida artikl mavjud emas. Artiklning alohida tarjimasi yo'q. Ot oldida artiklning ishlatilishi va ishlatilmasligining ahamiyati katta.

2. Ingliz tilida ikkita artikl bor: Noaniq artikl (The Indefinite Article) va aniq artikl (The Definite Article).

3. Noaniq artiklning ikkita shakli bor: a va an. An shakli unli tovushlar bilan boshlangan otlar oldida keladi: an opera, an apple, an hour. Qolgan hollarda artiklning a shakli ishlatiladi: a pen, a book, a student.

4. Aniq artiklning bitta shakli bor: the.

5. Noaniq artikl eski ingliz tilidagi an (bir) so'zidan kelib chiqqan, shuning uchun ham u faqat birlikdagi otlar oldida ishlatiladi.

6. Aniq artikl eski ingliz tilidagi the (u, o'sha) ko'rsatish olmoshidan kelib chiqqan bo'lib, ba'zi hollarda hozir ham dastlabki ma'nosini saqlab qolgan.

7. Noaniq artikl ishlatilganda otning biror turga (sinfga) mansubligini bildiradi[4;120].

Aniq artikl aniq biror predmet haqida gap borganda, ya'ni predmet o'zi tegishli bo'lган sinfdan ajratib ko'rsatilganda ishlatiladi. Aniq artikl o'quvchiga yoki tinglovchiga qaysi predmet haqida gap borayotganligi sharoitdan ma'lumligini ko'rsatadi.

M.: My book is on the table. yoki The pencil is hard.

*Qalam qattiq* degan kishi qalam sinfiga tegishli bo'lган har qanday predmetni emas, balki aniq bir predmetni, ya 'ni qattiq qalamni nazarda tutyapti. Yoki yana bir misol:

The doctor examined John.

- *Shifokor Jonni tekshirdi*, - deyilganda shifokor kasbiga ega bo'lган barcha kishilar bir vaqtning o'zida Jonni tekshirmagan, balki shu kasb egalaridan biri (aniq bir shifokor) uni tekshirgan, ya'ni gapirovchi barcha shifokorlar sinfidan Jonni tekshirgan shifokorni ajratib ko'rsatmoqda. Shuning uchun doktor so'zi oldidan aniq artikl qo'llanmoqda[3;638]

Aniqlik artikli dengiz nomlari (the Atlantic), daryo (Amazonka daryosi), ba'zi davlat nomlari (the USA, the UK), jamoat joylari (the theatre), nomlari bilan qo'llaniladi. Shuningdek, the Antarctic, the Earth, the world, the sky, the moon, the sun, the sea, the environment so'zlari ham aksariyat hollarda aniq holatda

bo'ladi[7;57].

Shu bilan birga aniqlik artikli (definite article) quyidagi holatlarda ham ishlataladi:

1. Dunyoda mavjud bo'lgan yagona narsalar haqida so'z borganda, masalan: What is the longest river in the world? (Dunyodagi eng uzun daryo qaysi?)- dunyoda faqatgina bitta eng uzun daryo bo'lishi mumkin; The earth goes round the sun and the moon goes round the earth; Have you ever crossed the equator?; I am going away at the end of this month; Paris is the capital of France. Biroq shahar nomlari (Moscow), aksariyat davlat nomlari (France), qit'alar (Africa), ko'cha nomlari (Baker Street), sayyoralar (Mars) naomlari bilan qo'llanilmaydi;

2. Tilga olinayotgan narsa va predmetning turi haqida gap ketganda esa a yoki an (indefinite article) qo'llaniladi, masalan: The sun is a star (Quyosh yulduzdir= koinotdagi yulduzlardan biridir); The hotel we stayed at was a very nice hotel (Biz tunab qolgan mehmonxona yaxshi mehmonxona ekan).

3. *Same* so'zidan so'ng doimo aniqlik artikli ishlataladi: Your pullover is the same colour as mine (*not* is same colour); Are these keys the same?

4. *Breakfast, lunch, dinner* so'zlari bilan odatda;

5. Vaqt, sana haqida so'z ketganda, masalan, *morning, afternoon, evening* so'zlari bilan: in the morning/ afternoon/ evening, on the 20<sup>th</sup> March, in the 1950s, ammo hafta kunlari (Thursday), oy nomlari (May), years (2009), at night tarzida qo'llaniladi;

6. Millat va lavozim nomlari bilan: the King, the Prime Minister, the army, the navy, the police, the Germans, the English[8;146].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, holat kategoriyasi, toinki, uni ifodalovchi maxsus grammatik vositalar hamma tillarda ham mavjud emas. Ammo nutq jrayonidan kelib chiqqan holda, shaxs, narsa va predmetlar aynan qaysi holatni (aniqlik yoxud noaniqlik) kasb etayotganini bilib olish mumkin. Arab, ingliz va yana bir qancha xomsom, roman-german lingvistik oilalariga mansub tillarda esa mazkur grammatik kategoriya alohida til birliklar orqali o'ziga xos yo'llar bilan ifoda etiladi. Ular bajaradigan asosiy vazifa esa shaxs va buyumning shu turdag'i buyumlardan ajratib ko'rsatilayotgani yoki ko'rsatilmayotganini, buyum suhabatdoshga ma'lum yoki noma'lumligini ifodalashgan iboratdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. /https://uz.wikipedia.org/wiki/Assimilyatsiya\_(ma%CA%BCnolari)/
2. Abdujabborov A. Arab tili. -Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.
3. Bonk N., Kotiy G., Lukyanova N. Ingliz tili darsligi. –Toshkent, 2013.
4. G'apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. -Toshkent: Turon- Iqbol, 2010.

5. Hasanov M. Arab tili. -Toshkent: Global books, 2019.
6. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I jild. -Toshkent: Namangan, 1997.
7. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Destination B1, 1995.
8. Raymond Murphy. Essential Grammar in Use. –London: Cambridge university press, 1994.
9. Xalidov B. Arab tili darsligi. -Toshkent: Fan, 2007.
10. Гранде Б. Курс арабской грамматики в сравнительно- историческом освещении. -Москва: Восточная литература, 2001.
11. Шагаль В. Учебник арабского языка. - Москва: Воениздат, 1983.